

**NIZOMIY NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 03/30.11.2024.Ped.26.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**NIZOMIY NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

TANGATOV BOBOMULLA BOZORBOYEVICH

**INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA KASBIY
KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора
философии (PhD) по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Tangatov Bobomulla Bozorboyevich

Integrativ yondashuv asosida talabalarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish
metodikasini takomillashtirish3

Тангатов Бобомулла Бозорбоевич

Совершенствование методики формирования профессиональной
компетентности студентов на основе интегративного подхода.....24

Tangatov Bobomulla Bozorboyevich

Improving the methodology for developing professional competence in students
based on an integrative approach.....49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works53

**NIZOMIY NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 03/30.11.2024.Ped.26.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**NIZOMIY NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

TANGATOV BOBOMULLA BOZORBOYEVICH

**INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA KASBIY
KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.Phd/Ped3454 raqam bilan ro‘yhatga olingan.

Dissertatsiya Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universitetida bajarilgan

Dissertatsiya avtoreferati uch (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) tilda ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tdpu.uz) hamda «Ziyonet» axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xalikov A‘zam Abdusalomovich

pedagogika fanlari doktori(DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Komilov Nodir Boqijonovich

pedagogika fanlari doktori(DSc), professor

Norqo‘ziyeva Zebo Kamolovna

pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc 03/30.11.2024.Ped.26.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “___” ___soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (manzil: 100138, Toshkent shahri, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel: (+99871) 27682-32, fax: (+99871) 276-76-51, email: tdpu_kengash@edu.uz.

Dissertatsiya bilan Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti axborot-resurs markazida tanishish mumkin (-raqami bilan ro‘yhatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent shahri, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel: (+99871) 27682-32, fax: (+99871) 276-76-51, email: tdpu_kengash@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “_____” kuni tarqatildi.

(2025-yil “_____” da -raqamli reestr bayonnomasi).

Sh.A.Abdullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

N.M.Ahmedova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Sh.A.Atadjanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari doktori , dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Jahon ta'lim muhitida xorijiy tillarni bilish orqali kelgusi kasbiy faoliyatini tashkil qilishga qodir, kompetentli kadrlarni tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ingliz tilining kasbiy va ishlab chiqarish hayotining universal vositasiga aylanib borayotganligi bo'lajak mutaxassisning til malakasi darajasiga qo'yiladigan talablarini keskin oshirmoqda. Ingliz tilini o'qitishda talabalarning kasbiy kompetensiyani rivojlantirish muammosi tobora dolzarb ahamiyat kasb etib, har bir shaxs uchun muloqot jarayonlarida aloqaning samarali vositasi bo'lib xizmat qilmoqda. YUNESKONing "Oliy ta'limni isloh qilish va rivojlantirish"¹ dasturiy hujjatida "ta'lim oluvchilar kelgusi kasbiy malakasining yuqori darajasiga oliy o'quv yurtida, o'qish davomida ega bo'ladilar",-deb e'tirof etilgan. Hozirgi davrning bu talabi bo'lajak har bir kadri chuqur bilimlar bilan bir qatorda lingvistik bilim va texnik ko'nikmalar bilan qurollangan, yuqori saviyali kasbiy kompetentlikka ega bo'lgan madaniyatli shaxs sifatida tayyorlash zarurligini ko'rsatadi.

Dunyoning rivojlangan- AQSH, Fransiya, Germaniya, Kanada va Yaponiya singari mamlakatlaridagi oliy ta'lim tashkilotlarida axborot almashinuvining asosiy vositasi bo'lgan og'zaki va yozma nutq malakasini takomillashtirish, davr talabiga javob beradigan yosh mutaxassislarni faqat nazariy bilimlarni chuqur o'rgangan holda emas, balki xorij tillarida erkin muomalaga kirisha oladigan, o'z ishini puxta egallagan muhim mutaxassislar etib tayyorlashga katta e'tibor qaratish, talabalarining kasbiy kompetentligini faoliyatli-tizimli yondashuvlar bilan integratsiyalash, ingliz tilini tezkor o'rganish, mualliflik va zamonaviy metodikalar kontekstida mutaxassislarning til birliklarini (fonetika, leksika va grammatika) rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu esa hozirgi vaqtda tayyorlanayotgan talabalarning o'z mutaxassisligi bo'yicha yuqori darajadagi bilimlarga ega bo'lishlari bilan birga xorij tili, xususan, ingliz tilida o'z fikrini og'zaki va yozma shaklda savodli bayon qila olish malakalariga ega bo'lishni va o'qitish metodikasida ta'lim olishning pedagogik imkoniyatlarini kengaytirish, uning mazmuni, usullari, vositalari, shakllari va texnologiyalarini tasniflashtirishni talab qiladi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar davlat ta'lim standartlarini takomillashtirish, talabalarning o'quv va ishlab chiqarish amaliyotini samarali tashkil etishning bazasini rivojlantirishning me'yoriy asoslari yaratilganligidan dalolat beradi. Shuningdek, "o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng tatbiq etish" imkoniyatlarini kengaytiradi². Bu esa, integrativ yondashuv asosida talabalarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish, kredit-modul tizimida xorij tillarini o'qitish, sifatli ta'lim berish orqali kadrlarning kasbiy kompetensiyasini yuksaltirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022- 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" farmoni, 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847 - son "O'zbekiston

¹ Doklad YUNESKO po nauke – 2015 – Na puti k 2030 godu. UNESCO Publishing, 2017. – 794 c.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022- 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" farmoni

respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" farmonlari, 2021 yil 19 maydagi PQ-5117 - son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora - tadbirlari to'g'risida", 2012 yil 10 dekabrda PQ-1875-son "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora - tadbirlari to'g'risida" qarorlari, 2022 yil 22 avgustdagi PQ-357 - son "2022-2023 - yillarda Axborot - kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora - tadbirlari to'g'risida" gi qarorlar va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining 1."Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy - ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini rivojlantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi bo'yicha bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Chet (ingliz tili) tilni o'qitishda interfaol metodlar va innovatsion texnologiyalardan foydalanish masalalari Sh.A.Atadjanova, L.T.Axmedova, J.J.Jalolov, U.U.Jumanazarov, G.T.Maxkamova, Z.K.Norqo'ziyeva, K.J.Riskulova, T.Q.Sattarov, D.Usarova, D.X.Xolmurodovlar tomonidan tadqiq qilingan. Ingliz tilini o'qitishda integrative yondashuv imkoniyatlariga tayanish masalalari bo'yicha N.M.Ahmedova, M.X.Gulyamova, G.O.Maqsudova tadqiq qilishgan.

Chet (ingliz) tili o'qitish jarayonida kasbiy kompetensiyaning tuzilishi va mazmuniy masalasiga G.A.Arslanova, P.I.Obrazsov, S.F.Shatilov S.K.Folomkina, I.A.Zimnaya, N.V.Kuzmina, I.I.Galiszyanova, Ye.V.Fedotkina, L.V.Pokushalova, Ye.I.Passov, Ye.V.Roshina, E.A.Shaturmaya tomonidan tadqiq etilgan.xorijiy tillarni o'qitishda integrativ yondashuv masalalari bo'yicha, Yu.A.Komarova, V.A.Kryuchkov, L.I.Gritsenko, Ye.N.Solovova tadqiqot ishlari olib borishgan.

Xorijda o'rganilayotgan muammo bo'yicha R.Carter, B.H.Douglas, C.I.Gragg, S.Holden, C.Livingston, S.J.Savignon, G.Sturtridge, A.Stoof tomonidan tadqiq etilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining "Pedagogik yo'nalishlar va mutaxassisliklar bo'yicha ilg'or pedagogika texnologiyalarini joriy etish, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, elektron-ta'lim resurslarini yaratish va takomillashtirish, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogika, multimedia va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish" nomli ustuvor yo'nalish doirasida bajarilgan (2021-2024 yy.).

Tadqiqotning maqsadi Integrativ yondashuv asosida bo'lajak muhandis talabalarining kasbiy kompetentligini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bo'lajak muhandis talabalarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlarni aniqlashtirish;

bo'lajak muhandis talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish modelini takomillashtirish;

integrativ yondashuv asosida bo'lajak muhandis talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish;

integrativ yondashuv asosida bo'lajak muhandislik talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish samaradorligini aniqlashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida bo'lajak muhandislik talabaning kasbiy kompetentligini takomillashtirish jarayoni belgilangan bo'lib, tajriba-sinov ishlariga Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, Jizzax politexnika instituti va Qarshi muhandislik iqtisodiyot institutlarining 465 nafar talabalari jalb qilingan.

Tadqiqotning predmetini integrativ yondashuv asosida bo'lajak muhandis talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish, metod, shakl, va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Nazariy tahlil usullari: o'rganilayotgan muammoga oid psixologik-pedagogik adabiyotlarni o'rganish, talabalarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishi muammosi ustida ish olib borayotgan pedagoglarning nashrlarini tahlil qilish; empirik tadqiqot usullari: anketalar, testlar, suhbatlar, kuzatishlar; tajriba natijalarini qayta ishlashning statistik usullari; talabalarni kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha maxsus ishlarni tashkil etish bo'yicha ishlar eksperimental tadbirlarda olib borilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishning jarayoni kasbiy, lingvistik, madaniy va kommunikativ kompetensiyalar shart-sharoitlariga moslashuv, hamda kasbiy motivatsiya, tilni kasbiy mazmunda integratsiyalash (CLIL) til amaliyoti bo'yicha motivatsion, maqsadga yo'naltirilgan, mazmuniy-instrumental va refleksiv komponentlarni kasbiy identlikka maqsadli uyg'unlashtirish asosida aniqlashtirilgan;

integrativ yondashuv asosida talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish modeli amaliy yondashuvlar, til va kasbiy kontekstda o'zini-o'zi rivojlantirish, refleksiv, aksiologik va shaxsga yo'naltirilgan tamoyillar, faoliyatga yo'naltirilgan o'qitish usullari bilan integratsiyalash hamda ilmiy innovatsion konsepsiyalarni rivojlantirishning natijaviyligini frontal ta'minlash asosida takomillashtirilgan;

integrativ yondashuv asosida talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari scaffolding, simulyatsiya, konstruktiv o'qitish, differensial o'qitish texnologiyalari hamda CLIL- Content and language integrated learning , CBI-content-based instruction, CLT – Communicative language teaching metodlarini mustaqil loyihaviy faoliyatni ta'limning didaktik-mantiqiy strukturasi moslashtirish asosida takomillashtirilgan;

talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish samaradorligi til va kasbiy faoliyatga bo'lgan qiziqishi va ichki rag'bati, kasbiy tayyorgarlik mazmunini chuqur o'zlashtirish darajasi, ingliz tilini kontekstda tushunishni mustaqil amalga oshirish qobiliyatlari hamda til bilish darajasi va o'z-o'zini takomillashtirish jarayonlari bilan

internallik darajasini barqarorlashtirish orqali takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“Transport vositalari muhandisligi” fanidan o‘quv qo‘llanma yaratilgan;
mustaqil bilim olish faoliyatini rivojlantirish moduli “Ingliz tili” fani takomillashtirilgan;

axborotlashgan ta’lim sharoitida bo‘lajak muhandis talabalarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

talabalarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish metodikasi ishlab chiqilgan;

talabalarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha mezonlar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi amalga oshirilgan yondashuvlar va tamoyillar, foydalanilgan nazariy va amaliy ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, analitik va eksperimental ishlanmalarning samaradorligi matematik statistik metodlar yordamida asoslangani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilingani hamda olingan natijalar vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati bo‘lajak muhandis talabalarning kasbiy kompetensiyalarining muhim xususiyatlari ochib berilgan; bo‘lajak muhandis talabalarning kasbiy kompetensiyalari rivojlantirish modeli ishlab chiqildi va ilmiy asoslandi; bo‘lajak muhandis talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonining samaradorligini ta’minlovchi ilmiy asoslangan pedagogik shart-sharoitlar; talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish mezonlari, ko‘rsatkichlari va darajalari belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati bo‘lajak muhandis talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish darajasini aniqlashga qaratilgan diagnostik so‘rov usullarini joriy etishda; talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish modelini sinovdan o‘tkazish va amalga oshirishda; talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish samaradorligini ta’minlaydigan pedagogik shart-sharoitlarni eksperimental tekshirish. Ushbu ilmiy-tadqiqot materiallaridan bevosita talabalarni kasbiy qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonida, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, monografiyalar, uslubiy ishlanmalar va tavsiyalar yozishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Talabalarda kasbiy kompetentli yondashuvning pedagogik tizimini takomillashtirish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida:

talabalarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari til amaliyoti bo‘yicha motivatsion faoliyatning ta’limiy maqsadga yo‘naltirilgan mazmuniy-instrumental va refleksiv komponentlarni kasbiy identlikka maqsadli uyg‘unlashtirish asosida aniqlashtirish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalardan “English for transport engineering” o‘quv qo‘llanmasi mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2025-yil, 23-apreldagi 11-05-2548/04 sonli dalolatnoma). Natijada, muhandis talabalarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishga xizmat qiladi.

integrativ yondashuv asosida talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish

modeli o'zini-o'zi rivojlantirishning reflektiv xarakteriga ko'ra aksiologik va shaxsga yo'naltirilgan tamoyillar mazmunini ilmiy innovatsion konsepsiyalarni rivojlantirishning natijaviyligiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi faktorlarning tilni o'zlashtirishga proporsional ekanligini ko'rsatib berish asosida takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan «English for transport engineering» o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2025-yil, 23-apreldagi 11-05-2548/04 sonli dalolatnoma). Natijada, talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

integrativ yondashuv asosida talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari o'zlashtirilgan bilimlarni scaffolding, simulyatsiya, konstruktiv o'qitish, differensial o'qitishning tashkiliy-funksional mazmuniga singdirish hamda CLIL, CBI, CLT metodlar strukturasi moslashtirish asosida takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan «English for transport engineering» o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2025-yil, 23-apreldagi 11-05-2548/04 sonli dalolatnoma). Natijada, bo'lajak muhandis talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi takomillashgan;

talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish samaradorligi til va kasbiy faoliyatga bo'lgan qiziqishni hisobga olishga ko'ra kommunikativ muloqot natijasida o'z-o'zini faollashtirish jarayonlari bilan internallik darajasini barqarorlashtirish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar «English for transport engineering» o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2025-yil, 23-apreldagi 11-05-2548/04 sonli dalolatnoma). Natijada oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi samaradorligi oshgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari, jumladan, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 8 ta ilmiy-uslubiy ishlar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, 2 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, 138 sahifa matn, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Integrativ yondashuv asosida talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari**” deb nomlangan

birinchi bobda talabalarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasining metodik, psixologik-pedagogik muammolarini o'rganilganlik darajasi tahlil qilingan, kasbiy kompetentlik rivojlantirishning metodik xususiyatlari o'rganilgan va talabalarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning integrativ yondashuvga tayanish imkoniyatlari va bosqichlari tahlil etilgan.

Chet tilidagi muloqot sharoitida kasbiy xarakterdagi muammolar va masalalarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishning asosi talabaning kasbiy kompetentligining bir qismi bo'lgan va kasbiy kompetensiyaga hissa qo'shadigan turli xil kompetensiyalarning murakkab fanlararo bilimlari, ko'nikmalari va malakalaridir. Kasbiy fikrlashni rivojlantirish, kasbiy muloqot sohasida ingliz tilidan amaliy foydalanishga tayyorlikni rivojlantirish demakdir. Shunga ko'ra, aniq kasbiy xususiyatga ega bo'lgan ushbu kompetensiyani kasbiy yo'naltirilgan chet til kompetensiyasi deb atash mumkin, bunda biz mutaxassisning shaxsiy xususiyatlarini tushunamiz, bu zarur bilim, ko'nikma va malakalarning bir qismidir. Bu kompetensiyani tashkil etuvchi psixologik, pedagogik, metodik, predmetli, kommunikativ kompetensiyalar hisoblanadi.

Kompetentlik yondashuvga asoslangan ta'lim muammolari so'nggi vaqtlarda pedagogika fanida keng tadqiq etilmoqda. Kompetentlik yondashuvni amalga oshirishning nazariy qoidalarini ishlab chiqishga G.A.Arslanova, P.I.Obrazsov, S.F.Shatilov, S.K.Folomkina, I.A.Zimnaya, Z.K.Norqo'ziyeva, N.H.Kushieva, G.A.Matushanskiy, N.Muslimov, A.R.Xodjabayev, M.X.Gulyamova, K.J.Riskulova kabi olimlar katta hissa qo'shishgan.

Xorijiy tilni o'qitishdagi ko'plab tamoyillar orasida biz integratsiya tamoyilini ajratib ko'rsatamiz, u mazkur nomdagi yondashuvning mohiyatini belgilaydi. Integratsiya tamoyilining falsafiy talqini, ma'lumki, ilgari bir-biridan ajralgan qismlar va elementlarni yagona yaxlit tizimga birlashtirish bilan bog'liq. Integrativ yondashuv dolzarb muammolari bo'yicha Yu.A.Komarova, V.A.Kryuchkov, L.I.Gritsenko, Ye.N.Solovova, R.A.Mavlonova, N.H.Rahmankulova, N.M.Ahmedova, M.X.Gulyamova, G.O.Maqsudova kabi olimlar tadqiq o'tkazishgan.

Ushbu tadqiqot doirasida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda integrativ yondashuvga tayanish imkoniyatlari, amaliy yo'nalish, faollik va shaxsiy yo'nalishni, chet tili fanining o'ziga xos xususiyatlarini, nutq faoliyati turlarini integratsiyasi va uni talabalarga o'qitish xususiyatlarini hisobga olgan holda kompetentlikka va integrativ yondashuvga asoslangan ta'lim mazmunida umumiy va individualni ajratish uchun biz "kompetentlik" va "kasbiy kompetentlik", "integratsiya" va "integrativ yondashuv" tushunchalarini ajratamiz:

kompetentlik – ma'lum bir faoliyat turini amalga oshirishga doir tayanch, fanga doir va xususiy kompetensiyalar majmui bo'lib, mutaxassisning faoliyatni amalga oshirishga tayyorligi va qobiliyatini aks ettiruvchi integrativ o'ziga xoslikdir;

kasbiy kompetentlik –insonning kasbiy faoliyatlarida mutaxassisligi, sohasida mutaxassisligi va samaradorligini ta'minlaydigan tushunchadir. Bu tushuncha kasbiy bilimlarga erishish, kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lish va ularni amalga oshirishga yordam beradi;

integratsiya - uzviylik, predmetlararo aloqadorlik, o'zaro aloqadorlik va nihoyat, o'zaro bir-birini to'ldiruvchi, kengaytiruvchi hamda chuqurlashtiruvchi,

o'quv predmetlari mazmunini eng kamida ta'lim standartlari darajasida sintezlab, mantiqan tugallangan mazmun shakli va oliy darajasidir;

integrativ yondashuv - o'rganilayotgan obyektning barcha muhim jihat va xususiyatlarini ajratib olib (tabaqalashtirib), mohiyati va mazmunini anglab yetish va ularni umumlashtirish orqali amalga oshiriladi.

Texnik oliy o'quv yurtlarida chet tili o'qitish amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, kelajakdagi mutaxassislarning kasbiy kompetentligiga doir chet tilidagi og'zaki nutq darajasi yetarli emas, bu esa talabalarni chet tilidagi kasbiy muhit bilan faol o'zaro aloqaga tayyor emasligini bildiradi. Bitiruvchilar o'z yo'nalishlariga oid adabiyotlarni o'qiy olishadi, yodlab olingan mavzularni takrorlab berishadi, biroq ular chet tilida erkin fikr bayon qilish, professional chet tilidagi muloqotda qatnashishda qiynaladilar.

Kuzatuvlar, suhbatlar va so'rovnomalar natijalariga ko'ra, talabalar duch kelayotgan asosiy muammolar quyidagilardan iborat(1-rasm):

Muammolar	Taklif va tavsiyalar	
Kommunikativ-funksional lug'at boyligini mos ravishda qo'llay olmaslik	Maxsus atamalarni o'rganish	So'zlarni va iboralarni mashq qilish
Kommunikativ vazifaga mos muloqot turini tanlay olmaslik	Kommunikativ vazifalarni turli kontekstlarda o'rgatish	Vazifaga mos uslublarni mashq qilish
Fikrlarni to'g'ri ifodalashda qiynalish	Grammatikani tez-tez qaytarib turish	Tahrir va tuzatish mashqlari
Til vositalarini tanlashda ishonchsizlik	Tilni amaliyotda qo'llash	Ishonchni oshirish
O'z-o'zini tahlil qilishni bilmaslik	Xatolarni tahlil qilish	Teskari aloqa

1-rasm. Talabalarda ingliz tilini o'qitishda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishdagi muammolar

Ammo zamonaviy jamiyat uchun muhim narsa shundaki, hozirgi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchisi kasbiy jihatdan muvaffaqiyatli va harakatchan bo'lishi, o'z kasbiy yo'lini o'zi shakllantira olishi, ichki va xalqaro bozordagi qattiq raqobat sharoitida ishlay olishi, va butun jamiyatning farovon rivojlanishiga faol hissa qo'sha olishi kerak. Bu esa chet tilini o'rganishda amaliy maqsadlarning inobatga olinmasligi sababli qiynlashmoqda.

S. F. Shatilov kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda chet tilini o'qitishda og'zaki nutq va yozma nutq bilan ham bog'laydi. Xuddi shu nuqtayi nazarni S.K.Folomkina "o'qish mahorati" orqali talabalarning ijodiy xarakterdagi birinchi mustaqil nutq harakatlarini bajarish qobiliyatini anglatadi, lekin ilgari o'rganilgan lingvistik hodisalarni o'z bilim va ko'nikmalari darajasida majburiy ishlatish bilan amalga oshirishini ta'kidlab o'tgan.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish zarurati jamiyatning bo'lajak mutaxassisni tayyorlashga bo'lgan obyektiv ehtiyojlarini aks ettiradi va kompetensiya, umuman olganda, shaxsiyat jihati sifatida, xususan, kasbiy aloqa doirasidagi, zamonaviy bilimlarni rivojlantirishning harakatlantiruvchi omiliga aylanadi. Bo'lajak oliy

ma'lumotli mutaxassisning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish muammosi murakkab va ko'p qirrali. Uning turli qirralari falsafa, akmeologiya, pedagogika, metodika, mehnat psixologiyasi va boshqa gumanitar fanlarda o'rganiladi.

N.M.Muslimovning fikricha, "kompetensiya" tushunchasi bilim, ko'nikma, mahorat va qobiliyatni ifoda etishga xizmat qiladi. A.R.Xodjaboyevning fikricha, kompetentlik nuqtayi nazaridan yondashish ta'limning yangi sifatiga erishish usuli hisoblanadi. Z.K.Noqo'ziyeva, kasbiy sohasida xorijiy til kompetensiyasining ketma-ket (izchil) shakllanishi va rivojlanishi amalga oshiriladi bu esa kasbiy kompetensiyalar yig'indisidir degan nazariyani ilgari suradi. K.D.Riskulovning fikricha, "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalari mazmunan bir xil maqsadga qaratilsada, mohiyatan bir-biridan qisman farq qilishini ta'kidlaydi.

Kasbiy yo'naltirilgan ingliz tilini o'rgatishda nafaqat ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlar, balki talabalar mutaxassisligi bilan bog'liq ishlab chiqarish va ilmiy sohalar yuqori rivojlangan davlatlar madaniyatini ham o'rganish zarur, chunki ular aynan shu davlatlarning mutaxassislari bilan muloqot qilish ehtimoli yuqori.


Ye.V.Fedotkina, texnik sohada ingliz tilida kasbiy rivojlanishini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun mutaxassislar, avvalo, eshitib tushunish, gapirish va yozish bo'yicha o'z ko'nikma va malakalarini takomillashtirishlari lozim. Chet tilidagi ko'nikmalar faqatgina ularning mazkur yo'nalishdagi mutaxassislar uchun belgilangan malaka xususiyatlariga mos kelgan taqdirdagina kasbiy kompetensiya tarkibida muvaffaqiyatli amalga oshadi.

Shu munosabat bilan, globallashtirish sharoitida texnik oliygohlarda chet tilini o'qitishga kasbiy yo'naltirilgan yondashuv alohida dolzarflik kasb etmoqda. Bunda talabalar o'z kasbiy, ishbilarmonlik va ilmiy faoliyat sohalariga xos holatlarda va vaziyatlarda chet tilida muloqot qila olish salohiyatini rivojlantirish nazarda tutiladi. Bunda talabaning kasbiy fikrlash xususiyatlari ham inobatga olinadi.

Hozirda chet tilini kasbiy yo'nalishda o'qitish ta'lim tizimini yangilashdagi ustuvor yo'nalishlardan biri deb tan olinmoqda. Aynan kasbiy yo'naltirilgan yondashuv nuqtayi nazaridan qaralganda, tilni o'rganishning asosiy vazifasi — talabalar tomonidan kasbiy kompetensiyani egallashdir, uning tarkibiy qismi sifatida chet tilidagi kommunikativ kompetensiya mavjud.

J.J.Jalolov fikricha, kasbiy yo'naltirilgan o'qitish — bu, talabalar kelajakdagi kasbiy yoki mutaxassisligi xususiyatlari bilan belgilanadigan chet tilini o'rganish ehtiyojlariga asoslangan ta'lim demakdir. Bu yondashuv quyidagilarni o'z ichiga oladi: talabalar shaxsiy sifatlarini rivojlantirishni, o'rganilayotgan til mamlakatining madaniyatini bilishni, kasbiy va lingvistik bilimlarga asoslangan maxsus ko'nikmalarni egallashni. U.U.Jumanazarov esa talabalarning shaxsiy-kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish kontekstida pedagogik muloqotni amalga oshirishga xizmat qiluvchi nutqiy kompetensiyaning o'rni alohida ekanligini ta'kidlaydi.

Tadqiqotda talabalarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishning jarayoni kasbiy, lingvistik, madaniy va kommunikativ kompetensiyalar shart-sharoitlariga moslashuv, hamda kasbiy motivatsiya, tilni kasbiy mazmunda integratsiyalash (CLIL) til amaliyoti bo'yicha motivatsion, maqsadga yo'naltirilgan, mazmuniy-instrumental va refleksiv komponentlarni kasbiy identlikka maqsadli uyg'unlashtirish asosida aniqlashtirildi(2-rasm).



2-rasm. Talabalarining kasbiy kompetentligini takomillashtirishning jarayoni

Transport vositalari muhandisligi ta'lim yo'nalishi talabalariga ingliz tilini o'qitishda kommunikativ yondashuv asosiy o'rinni egallaydi, ammo bu yondashuvni kengaytirib, talabalarining kelajakdagi kasbiy faoliyatini hisobga olish zarur. Odatiy til va nutq kompetensiyalaridan tashqari, muhandislik talabalariga uchun diskursiv va leksik kompetensiyalarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Muhandislik sohasida diskursiv kompetensiya talabalarga quyidagi imkoniyatlarni beradi: texnik matnlarni tushunish (sxemalar, chizmalar, texnik qo'llanmalar, ilmiy maqolalar kabi turli xil muhandislik diskurslarini tushunish va tahlil qilish); muhandislik muammolarini muhokama qilish (loyihalarni muhokama qilish, yechimlarni taklif qilish va texnik masalalarni ingliz tilida aniq va tushunarli yetkaza olish); xalqaro hamkorlik (chet ellik hamkasblar bilan samarali muloqot qilish, konferensiyalarda ishtirok etish va xalqaro loyihalarda faol qatnashish); ilmiy-texnik yangiliklarni kuzatib borish (sohadagi eng yangi tadqiqotlar, ishlanmalar va texnologiyalar haqida ingliz tilidagi manbalardan ma'lumot olish).

Talabalar (muhandislik) uchun leksik kompetensiyani rivojlantirish quyidagilarni o'z ichiga oladi: texnik atamalarni o'zlashtirish (muhandislik sohasiga oid maxsus atamalar, qisqartmalar va jargonlarni bilish va to'g'ri ishlata olish); texnik lug'atni boyitish (turli muhandislik sohalariga oid keng qamrovli lug'atni o'zlashtirish); lug'atni kontekstda qo'llash (o'rganilgan texnik atamalarni og'zaki va yozma nutqda to'g'ri va

mos ravishda ishlata olish). Yuqoridagi yondashuvlar talabalarning (muhandislik) ingliz tilini kasbiy faoliyatida samarali qo'llash qobiliyatini rivojlantiradi va ularni xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislariga aylantiradi.

Muhandislik yo'nalishida tahsil oluvchi talabalarga ingliz tilini o'qitish jarayonida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish o'ziga xos metodik xususiyatlarni hisobga olishni taqozo etadi. Mazkur holatda ingliz tili muhandislik sohasida keng qo'llaniladigan xalqaro til sifatida, talabalarga texnik va ilmiy muloqotda ishtirok etish, hujjatlarni tayyorlash, texnik ma'lumotlarni tushunish va kasbiy-professional soha tarmoqlarida samarali ishlash imkoniyatini yuzaga chiqaradi.

Sohaga doir adabiyotlar va ilmiy tadqiqot ishlarini o'rganish muhandislik yo'nalishida tahsil oluvchi talabalarga xorijiy tilini o'qitish orqali kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning quyidagi metodik xususiyatlarini ajratib ko'rsatish imkonini berdi (2-jadval):

2-jadval

Kasbiy kompetentlikning metodik xususiyatlari

№	Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning metodik xususiyatlari
1	ingliz tilidagi maxsus terminologiya va leksikani o'rgatish;
2	xorijiy tilda kasbiy-professional yozma va og'zaki muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish;
3	ingliz tilida o'z kasbiy vazifalarini bajarishga tayyorlash;
4	ingliz tilida faol muloqotni tashkil etish;
5	xorijiy tilda loyihalar tashkil etish;
6	talabalarda ingliz tilidagi muhandislik materiallarini o'qib tushunish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish;
7	talabalarga texnik maqolalar, patentlar, loyihalar va boshqa professional hujjatlar bilan ishlashni o'rgatish;
8	ingliz tilida kasbiy etika, xavfsizlik talablari va ekologik mas'uliyat haqida muhokama olib borish.

Muhandis-talabalarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning o'ziga xos metodik xususiyatlari kasbiy faoliyati sohalari, mazkur mutaxassislik uchun belgilangan kasbiy vazifalar hamda kasbiy kompetensiyalarga qo'yiladigan talablar majmuining o'zaro aloqadorligini hisobga olish zaruriyatini yuzaga chiqaradi.


Xorijiy tilni o'qitishdagi ko'plab tamoyillar orasida biz integratsiya tamoyilini ajratib ko'rsatamiz, u mazkur nomdagi yondashuvning mohiyatini belgilaydi. Integratsiya tamoyilining falsafiy talqini, ma'lumki, ilgari bir-biridan ajralgan qismlar va elementlarni yagona yaxlit tizimga birlashtirish bilan bog'liq. Integratsiya ilgari mavjud bo'lgan tizim doirasida ham, ilgari aloqasiz bo'lgan elementlardan yangi tizim yuzaga kelganda ham sodir bo'lishi mumkin. Birinchi holatda, yangi elementlarning paydo bo'lishi tizimning yaxlitlik darajasini oshiradi. Ikkinchi holatda esa sifat jihatdan yangi hodisa vujudga keladi.

Xorijiy tilni o'qitish tashkil etilishi integratsiya tamoyili asosida quyidagi omillar bilan asoslanadi:

xorijiy tilning o'zi ham o'ziga xos integratsiya modeli hisoblanadi, chunki uning

tarkibiy qismlari – leksika, grammatika, fonetika – til ichida alohida mavjud emas, balki yagona yaxlitlikda faoliyat yuritadi; nutqiy faoliyat tafakkurdan ajralmasdir, chunki nutqiy harakatlar har qanday faoliyat tuzilmasiga kiradi, bu holat mashhur mahalliy psixologlarning ishlanmalarida batafsil bayon qilingan; kasbiy mavzular doirasida xorijiy tilda muloqot qilish ko‘nikmalarini egallash bir nechta fanlarning bilish salohiyatini uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Talabani o‘quv faoliyati faqat bilim olish vositalarini o‘zlashtirishga emas, balki universal xarakterdagi bilimlarni egallashga ham qaratilishi mumkin; kasbiy sohaga oid bilish faoliyati va xorijiy til vositalarini egallash jarayoni intellektual, hissiy va psixomotor komponentlarning yagona birligi bilan tavsiflanadi.

Shuningdek, tadqiqotimizda talabalarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda integrativ yondashuvning ahamiyatini quyidagicha belgilandi(3-rasm).



3-rasm. Talabalarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda integrativ yondashuvning ahamiyati

Ingliz tilini o‘qitishda muhandislik ta‘lim yo‘nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuvning ahamiyati katta. Ushbu yondashuv til va kasbiy bilimlarni birlashtirib, talabalarni ingliz tilida samarali muloqot qilish va texnik bilimlarni ifodalashga tayyorlaydi. Integrativ yondashuv talabalarga nafaqat til ko‘nikmalarini, balki o‘z mutaxassisligi bo‘yicha kompetentlikni rivojlantirish, amaliy vazifalarni bajarish va xalqaro aloqalarni o‘rnatish imkonini beradi. Natijada, bu metodika talabalarni global miqyosda raqobatbardosh, yuqori malakali mutaxassislar qilib tarbiyalaydi.

Dissertatsiyaning “**Integrativ yondashuv asosida talabalarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish tizimi**” deb nomlangan ikkinchi bobida bo‘lajak muhandislik talabalarining kasbiy kompetentligi mazmuni va modeli tahlili, innovatsion texnologiyalar asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish metodikasini auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarida ishlab chiqilgan.

O‘zbekiston uzluksiz ta‘limining Davlat ta‘lim standartlari ilg‘or tajribalarini

ta'lim jarayoniga tadbiq etish, ta'lim sifati va samaradorligiga erishishda dunyodagi rivojlangan mamlakatlar ilg'or tajribalarining maqbul mazmuni, mexanizmlari, innovatsion shakl va metodlari, vositalarini hamda axborot olishni Oliy ta'limning Davlat ta'lim standartlariga mos holda amaliyotda qo'llash orqali o'ziga xos va o'ziga mos ravishda rivojlanib bormoqda.

Tadqiqot ishimiz doirasida transport vositalari muhandisligi ta'lim yo'nalishida tahsil oluvchi talabalarning kasbiy kompetentligi mazmunini yoritib berish taqozo etiladi. Mazkur bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablarida muhandislik va loyiha-konstruktorlik, tashkiliy-boshqaruv, foydalanish-servis, ilmiy-tadqiqot, axborot-tahliliy faoliyat kabi kasbiy faoliyat turlarini amalga oshirilishi belgilab berilgan.

Malaka talablarida Muhandis bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarish belgilab berilgan:

Muhandislik va loyiha-konstruktorlik faoliyatida transport vositalari muhandisligi sohasida bajarilayotgan tajriba-konstruktorlik va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tadqiqot qilish; transport vositalari qismlari namunalarini eksperimental tadqiq qilish va o'lchash vositalari hamda metodlarini tanlash, konstruktiv, muhandislik va texnik-iqtisodiy hisob usullarini ishlab chiqish, mehnatni tashkil etish va ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish; loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish kabi vazifalarni amalga oshirish transport vositalari muhandisligi talabalaridan xalqaro aloqa va hamkorlik, xorijiy tildagi texnik adabiyotlar va ilmiy tadqiqotlar mazmunini tushuna olish, xorijiy tildagi loyiha hujjatlarini ishlab chiqish hamda muhandislik sohasida ko'plab maxsus atamalar va tushunchalar mazmunini bilishni taqozo etadi.

Bugungi globallashuv sharoitida texnik oliy ta'lim tizimida bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda xorijiy til, xususan, ingliz tilini o'rgatish alohida o'rin tutadi. Chunki hozirgi kunda muhandislik sohasida xalqaro hamkorlik, ilmiy-texnik hujjatlar bilan ishlash, ilmiy axborotlarni izlash va kasbiy muloqotda qatnashish uchun xorijiy til kompetentligining yuqori darajada bo'lishi zarurdir. Aynan shu kontekstda integrativ yondashuv asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonida chet tilida gapirish (speaking) va tinglab tushunish (listening comprehension) ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi ham takomillashtirilmoqda.

Integrativ yondashuv asosida xorijiy tilni o'qitish konsepsiyasi alohida til ko'nikmalarini rivojlantirishdan ko'ra, ularni o'zaro bog'liq holda rivojlantirishga asoslanadi. Tadqiqotimizda kasbiy kompetensiya deganda chet tildagi 4 ta ko'nikmani rivojlantirish nazariyasi ilgari surilgan. Demak talabalar (bo'lajak muhandislar) qachonki chet tildagi o'qish, yozuv, gapirish va tinglab tushunish ko'nikmalarini B1 yoki B2 darajada egallar ekan shunda ular kasbiy kompetentlikka to'liq erishgan deb aytish mumkin. Ayniqsa, gapirish (speaking) va tinglab tushunish (listening comprehension) ko'nikmalarining kompleks tarzda o'qitilishi zamonaviy kasbiy-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Bu ko'nikmalar, ayniqsa, texnik sohada faoliyat yurituvchi bo'lajak muhandislar uchun zarur bo'lgan interaktiv, dialogik va reflektiv muloqotga tayyorgarlik darajasini belgilaydi.

Shu bois, integrativ yondashuv doirasida gapirish va tinglab tushunish ko'nikmalarini birgalikda rivojlantirishga qaratilgan metodik faoliyatlar tizimli, maqsadga yo'naltirilgan va kasbiy kontekstga mos holda tashkil etilishi zarur. Bu metodik faoliyat gapirish va tinglab tushunish ko'nikmalarining uzviy uyg'unligini ta'minlaydigan kompleks yondashuvga asoslanadi. Taqdimotlar talabani og'zaki nutqini rivojlantirsa, reflektiv muhokamalar esa eshitilgan axborotni anglash, tahlil qilish va unga munosabat bildirish malakasini shakllantiradi. Shu bilan birga, bu jarayon nutqiy faoliyatning ikki asosiy komponentini — produktiv va reseptiv qobiliyatlarni birgalikda rivojlantiradi. Mashg'ulotlar jarayonida qo'llanilgan usullardan va misollardan keltirib o'tadigan bo'lsak, bunda talaba "Sustainable construction technologies" mavzusida ingliz tilida taqdimot tayyorlaydi va taqdimotda ekologik qurilish materiallari, energiya tejavchi tizimlar va zamonaviy muhandislik texnologiyalari yoritiladi. Auditoriyadagi talabalar esa ushbu taqdimotni diqqat bilan tinglaydi, asosiy mazmuni anglaydi, savollar beradi va texnologiyalarning afzalliklari va cheklovlari yuzasidan mulohazalar bildiradi.


Bu yondashuv ayniqsa, kasbiy muloqotga tayyorlash jarayonida yuqori natija beradi, chunki talaba real kasbiy vaziyatlarga mos ravishda til faoliyatini bajarayotgan bo'ladi. Shu jihatdan, taqdimot va reflektiv muhokama reproduktiv bilimlarni emas, balki konstruktiv fikrlashni faollashtiruvchi metodik vosita sifatida ta'lim samaradorligini oshiradi.

Talabalarda ingliz tilini o'qitishda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda integrativ, faoliyatli va kompetensiyaviy yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvlar talabalarga nafaqat ingliz tilini o'rganish, balki uni kasbiy faoliyatda samarali ishlatish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Quyida har bir yondashuvning mazmuni berilgan.

Integrativ yondashuv ingliz tilini o'qitishda talabalarni barcha ko'nikmalarni (tinglash, o'qish, yozish, gapirish) birlashtirgan holda o'rgatishga qaratilgan. Bu yondashuv til o'rgatish jarayonida kasbiy bilim va ko'nikmalarni integratsiyalashga asoslanadi, ya'ni talabalar ingliz tilini o'rganish jarayonida mutaxassisliklar bilan bog'liq vazifalarni bajaradilar. Integrativ yondashuv ta'limning amaliy jihatiga e'tibor qaratadi, bu esa talabalarning tilni kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatli ishlatishlariga imkon yaratadi.

Faoliyatli yondashuv til o'qitish jarayonida talabalarni faol ishtirokchiga aylantiradi. Bu yondashuvda talabalar tilni faqat passiv ravishda o'rganmaydilar, balki uni faol tarzda, o'zaro muloqotda va turli vazifalarni bajarish orqali o'zlashtiradilar. Faoliyatli yondashuv orqali talabalar o'zlarining tilga oid ko'nikmalarini amalda sinab ko'radilar. Kompetensiyaviy yondashuv ta'lim jarayonida talabalarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan. Bu yondashuvda talabalar nafaqat ingliz tilini o'rganish, balki o'qish, yozish, tinglash va gapirish ko'nikmalarini, shuningdek, kasbiy faoliyatda zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtiradilar. Kompetensiyaviy yondashuv o'quv jarayonini nafaqat til o'rganishga, balki kasbiy faoliyatni bajarishga tayyorlashga yo'naltiradi.

Modelda shuningdek, talabalarda ingliz tilini o'qitishda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda reflektiv, shaxsga yo'naltirilgan va aksiologik tamoyillar ham o'z aksini topgan. Har bir tamoyil o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga yordam



4-rasm. Integrativ yondoshuv asosida talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish

